

"SHAXS OTI YASOVCHI QÒSHIMCHALAR" MAVZUSIGA
INNOVATSION YONDASHUV

Xojimatova Karimaxon

Oltinkòl tumani 28-umumiy o'rtta ta'lim maktabi

Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o'quvchilarga "shaxs oti yasovchi qòshimchalar" mavzusini o'qitishda, innovatsion texnologiyalardan foydalanish va bu orqali tasavvur va bilimlarini o'stirishga oid ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsion texnologiyalar, an'anaviy ta'lim, zamonaviy texnologiyalar, "Ijodiy o'yinlar" texnologiyasii.

KIRISH

Ma'lumki har bir dars mavzusini o'rganishda o'ziga xos texnologiya, usul va vositalarni tanlashga to'g'ri keladi. O'qitish jarayonida yuqori natijalarga erishish uchun dars jarayonini oldindan ketma-ketligini mo'ljallash kerak bo'ladi. Bunda o'qituvchi fanning o'ziga xos tomonlarini, o'quv jarayonini va sharoitini, o'quvchilarning ehtiyojini va imkoniyatlarini, bilim saviyasini, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiyalarini tanlashi lozim.

Ta'lim tizimining rivojlanishini hozirgi holatini axborotlashtirishsiz tasavvur qilish mumkin emas. Darhaqiqat, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirishga zamin yaratadi. Bunda pedagogik jarayonning mazmuni takomillashadi, o'qitishning innovatsion modellari joriy etiladi, shuningdek, o'quvchi va o'qituvchilarning hamkorlikdagi faoliyati tashkil etiladi. Har qanday ta'lim muassasida o'quv jarayonini axborotlashtirishning zaruriy sharti sifatida zamonaviy axborot texnologiyalarini ham boshqaruvda, ham ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish bo'yicha yagona siyosat va strategiyani ishlab chiqish hisoblanadi. Ta'lim yangi bosqichga ko'tarilmoqda, o'quvchilarning fikrlash darajasi kengaymoqda, axborot olish osonlashmoqda, bunday o'sish jarayonida o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanmaslik darsning samaradorligini keskin kamaytiradi. O'zbekistonning bugungi kuni uchun iqtisodiyotning innovatsiyalarga asoslangan rivojlanishini ta'minlash vazifasi turmoqda. Shuning uchun O'zbekistonda ta'lim tizimidagi islohotlar iqtisodiyotdagi yangi o'zgarishlar paydo bo'lishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib qolmoqda. O'zbekiston ta'lim tizimida keyingi 20 yilda qator o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu muammolarga asoslardan biri sifatida darsliklarning sifati va yangi chop etilayotgan fan darsliklarining o'quvchilar uchun tushunarsizligi hamda ushbu darsliklarning zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanib yaratilgan elektron yoki virtual variantlari mavjud emasligi bilan izohlash mumkin. Ayni shu muammolarni hal

etish yo'lida bugungi kunda axborot texnologiyalaridan foydalanish va ushbu soxa rivojiga qaratilgan bir qancha qarorlar o'z kuchini ko'rsatmoqda. Bu yo'lda o'z navbatida o'qitish tizimi uchun darsliklarning virtual va elektron variantlari ishlab chiqilmoqda. Bunday darsliklarning yaratilishida albatta bir qancha dasturlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda har bir ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi axborot texnologiyasidan foydalanishni bilishi shart va kerak.

Innovatsion texnologiyalar to'g'risida tushuncha.

An'anaviy ta'lim o'quvchilarni tayyor bilimlarni o'zlashtirishga o'rgatadi, unda o'qituvchi shaxsi asosiy o'rinni egallagan bo'lib, o'quvchi esa bu jarayonning passiv ishtirokchisi bo'lib kelgan. Ilmiy - texnik revolyutsiya davrida o'quvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan ilmiy axborot hajmining keskin oshib ketishi bilan an'anaviy ta'lim kam samarali bo'lib qoldi. Ana shuning uchun kelish davri interaktiv metodlar, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga kiritishga qiziqish tobora kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishga, mustaqil o'rganish, tahlil qilish va olingan bilimlardan o'zlari xulosa chiqarishga o'rgatadi. Innovatsion texnologiyalar inglizchadan "innovation" yangilik kiritish – pedagogik jarayon, ya'ni o'quvchi va o'qituvchi faoliyati o'zgarish, yangilik kiritish, o'quv jarayonida interaktiv metodlardan to'liq foydalanishni o'z ichiga oladigan vositalar esa o'quvchining birgalikda faoliyat orqali ta'lim mazmuniga ta'sir ko'rsatadigan vositalarni o'z ichiga oladi. Bunda hamkorlikning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- o'quvchining bilim olish ishtiyoqini muntazam oshirib borish;
- o'quvchining har qanday muammoga ijodiy yondoshuviga o'rgatish;
- pedagog va o'quvchi faoliyatining o'zaro hamkorligini ta'minlash;
- o'quvchining dars davomida befarq bo'lmasdan, ijodiy fikrlashiga imkon yaratish.

Bu jarayonda kafolatlangan natijaga erishish o'qituvchi bilan o'quvchining hamkorligida faoliyati, o'quvchining ijodiy ishlash mustaqil fikrlashi, izlanishi, tahlil qilinishi va xulosa qilishi, o'quvchining o'ziga va guruhga, guruhning o'quvchiga baho berishiga imkon yaratilishi bilan bog'liq. Har bir darsga o'quvchilar qiziqishi mavzu mazmuni va maqsadidan kelib chiqqan holda o'ziga xos texnologiya qo'llaniladi.

Darsning texnologik xaritasi oldindan loyihalashtirilgan bo'ladi. Darsning turli bosqichlarida har xil interfaol usullardan foydalansa bo'ladi.

Masalan:

“Ijodiy o'yinlar” texnologiyasi.

Ijodiy o'yinlar o'quvchilar o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari ijodiy qo'llash, o'qish jarayonida paydo bo'ladigan muammoli vaziyatlarni ijodiy izlanish orqali hal etishdan iborat. Bunday o'yinlar o'quvchilarning mustaqil ijodiy izlanishlar va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga, bilimlarni yanada mustahkamlash va yangi

bilimlar berishga qaratilgan bo'ladi. Ijodiy o'yinlardan barcha fanlardan yirik mavzular va boblar bo'yicha o'rganilgan bilimlarni umumlashtirish maqsadida foydalanish mumkin. Bunda sinfdagi o'quvchilar o'zlashtirish darajasi va soni bo'yicha bir xil imkoniyatga ega bo'lgan guruhlariga ajratiladi. Har bir guruh o'qituvchi tavsiya etgan topshiriqlarni mustaqil ijodiy bajaradi. Guruhlarni shartli ravishda bir necha mutaxassislariga ajratish mumkin. Har qaysi guruh mutaxassislari o'qituvchi tavsiya etgan topshiriqlarni mustaqil ijodiy bajarib, fanda "yangilik" kashf etishadi. O'z javoblarini ko'rgazmali qurollar yordamida asoslab berishadi.

Shaxs oti yasovchi affikslar:

- chi: ot, sifat, son va harakat nomidan ot yasaydigan serunum affiksdir: ov+chi, ish+chi, a'lo+chi, yolg'on+chi, ikki+chi, ellik sentner+chi, kurash+chi, o'quv+chi. Bu otlar umumiy ma'nolariga ko'ra bir necha uyadosh guruhlarini tashkil etadi: 1) kasb, mutaxassislik bilan shug'ullanuvchi shaxs otlari: ishchi, neftchi, sportchi, qo'shiqchi, bo'zchi, hisobchi, tunkachi, tilchi; 2) asosdan anglashilgan harakat va hodisada ishtirok etuvchi shaxs otlari: jangchi, isyonchi, hasharchi; 3) asosdan anglashilgan harakat va hodisa bilan shug'ullanuvchi shaxs oti: respublikachi, himoyachi, xabarchi kabilar shular jumlasidandir. -chi af-fiksi ba'zi ot yasovchilar bilan ma'nodoshlik hosil qiladi. Shu bois ular qo'shilgan o'zakdosh so'zlar sinonimik munosabatda bo'ladi: chorva+chi-chorva+dor, ko'mak+chi-ko'mak+dosh, mehnat+chi-mehnat+kash, til+chi-til+shunos. Bu affiks so'roq, taajjub, kuchaytiruv ma'nolarini anglatuvchi -chi yuklamasi bilan shakldoshdir: terim+chi, terim-chi.

-dosh: otdan birgalik, sheriklik, umumiylik kabi ma'noga ega bo'lgan ot yasaydi: vatandosh, zamondosh, safdosh, sirdosh. Bu affiks ba'zan tojikcha ham- old yasovchi qo'shimcha bilan ma'nodoshlikka ega bo'ladi: kasbdosh-hamkasb, suhbatdosh-hamsuhbat.

-kash: otdan kasb-hunar, xususiyat otlarini yasaydi: aravakash, meh-natkash, qalamkash. Bu affiks otdan sifat yasovchi -kash qo'shimchasi bilan shakldoshdir. Qiyoslang: pastkash, dilkash, dardkash.

-bon: ot asosdan anglashilgan narsani saqlovchi, parvarishlovchi shaxs otini yasaydi: bog'bon, qo'ychibon\qo'ychivon, darvozabon.

-boz: ot asosdan anglashilgan narsa, mashg'ulot bilan shug'ullanuvchi otni yasaydi: dorboz, kaptarboz, nayrangboz, qilichboz.

-paz: ot anglatgan narsani pishiruvchi shaxs otini yasaydi: oshpaz, somsapaz, kabobpaz.

-dor: ot anglatgan narsaga ega bo'lgan shaxs otini yasaydi: chorvador, mansabdor, puldor, amaldor. Bu affiks sifat yasovchi -dor bilan shakldoshdir: aydor, rangdor.

-shunos: biror soha bilan shug'ullanuvchi shaxs otini yasaydi: tilshunos, tabiatshunos.

-xon: asosdan anglashilgan narsaning doimiy o'quvchisi ma'nosi-dagi ot yasaydi: kitobxon, duoxon, gazetxon.

-soz: ot anglatgan narsaning tuzatuvchisi, yaratuvchisi ma'nosidagi ot yasaydi: soatsoz, mashinasoz, asbobsoz.

-do'z: ot anglatgan narsani tayyorlovchi shaxs otini yasaydi: etikdo'z, maxsido'z, do'ppido'z.

-gar: asosdan anglashilgan narsaga bog'liq kasb bilan shug'ullanuvchi shaxs otini yasaydi: zargar, savdogar, miskar, kimyogar.

-xo'r: asos anglatgan narsani doim iste'mol qiluvchi, oluvchi shaxs otini yasaydi: choyxo'r, poraxo'r, araxo'r, tekinxo'r.

-parast: asosdan anglashilgan hodisaga e'tiqod qiluvchi shaxs otini yasaydi: budparast, otashparast, maishatparast.

-go'y: asos anglatgan narsani aytib turuvchi shaxs otini yasaydi: nasihatgo'y, maslahatgo'y, xushomadgo'y.

-furusht: asos anglatgan narsani sotuvchi shaxs otini yasaydi: chinnifurusht, paxtafurusht, mevafurusht.

-vachcha: asos anglatgan kishilarga qarindosh bo'lgan shaxs otini yasaydi: boyvachcha, amnavachcha, xolavachcha, amakivachcha.

Qayd etilgan shaxs otini yasovchi affikslardan -kash, -bon, - paz, - shunos, -xon, -soz, -do'z, -gar (-kor), -xo'r, -furusht kabi affikslar fors-tojik tilidan o'zlashgandir.

-uvchi-ovchi: fe'l asosdan anglashilgan harakatni bajaruvchi shaxs otini yasaydi: uchuvchi, tinglovchi, sog'uvchi, sotuvchi. Shuningdek, bu affiks harakatni bajarishda vosita bo'lgan narsa otini yasashda ham ishtirok etadi: bog'lovchi, zidlovchi, tuslovchi.

2. Narsa, qurol, o'lchov birligi otlari yasovchi affikslar. Bu guruh ot yasovchilar, asosan, fe'lning o'zak-negiziga qo'shilib, ish - harakat bajarish uchun qo'llanadigan narsa, harakat, holat natijasi bo'lgan otlarni yasaydi. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

-k (ik /-ak, - uk), - q (-iq, -oq): taroq, to'siq, bo'lak, chaqiriq, yutuq, o'roq, yotoq.

-gi\ -ki\ -qi\ - g'i\ -g'u: supurgi, cholg'i, cholg'u, chopqi, achitqi, tomizg'i.

- gich\ -kich\ -qich\ -g'ich: o'lchagich, qirg'ich, qisqich, o'chirg'ich.

- m, -im, -um: to'plam, o'ram, terim, chiqim; yutum.

- ma: tugma, to'qima, qatlama, suzma, isitma, jamg'arma.

- indi: yuvindi, chiqindi.

- qin, -qun, -g'un: toshqin, to'lqin, uchqun, qirg'in.

- indi: cho'kindi, yuvindi, chiqindi, yig'indi.

- in\ -un: yog'in, yig'in, bo'g'in, tugun.

- ch\ -inch: sevinch, o'kinch, qo'rqinch.

- ish: qurilish, turlanish, kirish (muqaddima).

- uv-ov: yozuv, kechuv, qistov, maqtov.

3. O‘rin-joy oti yasovchi affikslar. Asosan otning leksik ma‘nosi-dan anglashilgan narsaning mavjud bo‘lish o‘rin-joyi bilan bog‘liq otlar yasaydi:

- loq (-lov): toshloq, qumloq, o‘tloq, yaylov.
- zor: paxtazor, gulzor, lolazor, bedazor.
- iston: O‘zbekiston, Guliston, qabriston.
- qoq\ -g‘oq: botqoq.
- xona: oshxona, suratxona, muzxona.
- goh: manzilgoh, oromgoh, saylgoh.

4. Mavhum ot yasovchi affikslar sifat, ravish, son, ot, olmosh va fe‘lning o‘zak-negiziga, ba‘zan modal so‘zlarga qo‘shilgan holda mavhum tushunchalarni ifodolovchi otlar yasaladi:

- lik: yaxshilik, tezlik, birlik, otalik, o‘zlik, manmanlik, borliq, yo‘qlik.
- chilik: pillachilik, paxtachilik.
- garchilik: xafagarchilik, loygarchilik.
- izm: realizm, chorizm, terorizm.
- ch\ inch: sog‘inch, quvonch, sevinch, o‘kinch.
- noma: dalolatnoma, vasiyatnoma, tashakkurnoma.

5. O‘zbek adabiy tilida ba‘zi taqlid so‘zlardan ot yasovchi affikslar ham mavjudki, ular unumsiz so‘z yasovchilar qatoriga kiradi:

- ak\oq: qarsak, bizbizak, qaldiraq.
- ildoq: shaqildoq, chirildoq.
- a: sharshara, g‘arg‘ara.
- os: sharros, gulduros.

2-§.Kompozitsiya usuli bilan ikki yoki undan ortiq so‘z shakllarining tilda mavjud bo‘lgan qoliplar asosida tobelanishi orqali birikishi va bu sintaktik aloqaning hozirgi tilda kuchsizlanishi natijasida bir umumiy ma‘noga ega bo‘lishi orqali qo‘shma ot yasaladi. Qo‘shma otlarni hosil qiluvchi qismlar o‘zaro quyidagi sintaktik munosabatlarga asoslanadi:

- 1) sifatlovchi+sifatlanmish: oqsaqol, beshbarmoq, yangi yo‘l, qizilishton, itbaliq.
- 2) qaratuvch+qaralmish: bilaguzuk, bedapoya, belbog‘, so‘z boshi, karvonboshi.
- 3) to‘ldiruvchi+to‘ldirilmish: muzyorar, otboqar, dunyoqarash, o‘rinbosar.
- 4) ega+kesim: roykeldi, go‘shkuydi, kampiro‘ldi.
- 5) hol+hollanmish: iskabtopar, olibsotar, ishlab chiqarish.

O‘zbek tilida tojikcha izofali birikmalar asosida yuzaga kelgan gulbeor, gultojxo‘roz, guliqahqah singari qo‘shma otlar ham mavjud bo‘lib, ular doim qo‘shib yoziladi. Shuningdek, tilimizga rus tili orqali kirib kelgan aeroport, antisiklon, aerovakzal singari tarkibiy qisimli so‘z-lar ham borki, ularning qismlari o‘zbek tilida mustaqil ishlatilmasligi sababli qo‘shma ot hisoblanmaydi.

3-§.Semantik usul. Tilda mavjud bo‘lgan ko‘pgina so‘z va so‘z shakllari otlashgan shaklda ishlatilishi natijasida ba‘zan otga ko‘chadi. Ular tarkiban tub yoki yasama bo‘lib, quyidagi so‘z turkumlaridan iborat bo‘lishi mumkin :1) usta, otlarda so‘z o‘zgarish, so‘z yasaliş xususiyatlari bir qatorda modal shakl yasash hodisasi ham mavjud.

Otlarning leksik ma’nosiga qo‘shimcha modal ma’no qo‘shilishi bilan hosil qilinadigan shakl modal shakl yasash deyiladi. Otlar o‘z leksik ma’nosiga qo‘shimcha kichraytish, erkalash, hurmat, kuchaytirish, gumon, noaniqlik kabi modal ma’nolarni ifodalaydi.

Otlarda bu modal ma’nolar ikki xil usul bilan yasaladi: morfologik usul va takrorlash usuli.

Morfologik usulga ko‘ra otning leksik ma’no ifoda etuvchi qismiga modal shakl yasovchi affikslarni qo‘shish orqali modal ma’no yasaladi. Bu usulga ko‘ra otlarning kichraytish, erkalash, hurmat kabi modal shakllari hosil qilinadi.

Otlarda modal shakl yasovchi affikslarga quyidagilar kiradi:

-cha: qizcha, uycha -chak, -choq: kelinchak, qo‘zichoq, toychoq -loq, -aloq: joyloq, bo‘taloq, qizaloq -gina: bolagina, qizgina -xon, -jon, -oy, -boy: otaxon, onajon, Ra’noxon, YUlduzoy, Karimboy.

Otni maxsus takrorlash yo‘li bilan gumon, kamsitish, umumlashtirish, noaniqlik kabi modal ma’nolar yasaladi. Bu usulga ko‘ra modal shakl hosil qilishda takrorlanuvchi qismda turli fonetik o‘zgarishlar yuz beradi:

1.Ot unli tovush bilan boshlanganda, takrorlanuvchi qism boshqa p, m, s, ch, d, j, t tovush orttiriladi: un-pun, ot-pot, o‘rik-mo‘rik, irim-sirim, irim-chirim, imi-dimi, alang-jalang kabi. oqsaqol, boy, qahramon, boboy, momoy, xotin kabi aslida sifat turkumiga mansub so‘zlar; 2) o‘quvchi, yozuvchi, to‘quvchi, saylovchi, aniqlovchi, aniqlanmish kabi aslida fe’ning sifatdash shakllariga mansub so‘zlar; 3) o‘qish, otish, kirish, chiqish, qurish, saylov, tergov kabi aslida fe’ning harakat nomi shakliga mansub bo‘lgan so‘zlar otga ko‘chadi. Bundan tashqari ba’zi so‘zlarning juft va takror qo‘llanishi asosida ham ular otga xos ma’noga ega bo‘lishi mumkin: qo‘ydi-chiqdi, oldi-berdi, u-bu kabilar shular jumlasidandir.

4-§.Abbreviatsya usuli bilan qisqartma otlar hosil qilinadi. Qisqartma otlar nutqda ixchamlikka erishish maqsadida turg‘un so‘z birikmalarini quyidagicha qisqartirish orqali yasaladi:

1. Qisqartirilayotgan so‘zlarning birinchi tovushlaridan tarkib topadi: BAM, BAR, BMT, GUM.

2. Qisqartirilayotgan so‘zlarning bosh qismlaridan tarkib topadi: Filfak, Unvermag, SamKochAvto.

3. Birinchi so‘zning bosh qismi va keyingi so‘zlarning birinchi tovushlaridan: Tosh MI, Sam DChTI, Sam DU.

4. Birinchi soʻzning bosh qismi va keyingi soʻzni toʻliq olish orqali: Medinstitut, dramteatr, avtoyoʻl.

XULOSA

Ona tili va adabiyoti darslarida innovatsion usullarni qoʻllash natijasida oʻquvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va toʻgʻri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar oʻquvchida bilimga ishtiyoq uygʻotadi. Oʻquvchi darslarga puxta hozirlik koʻrishga intiladi. Bu esa oʻquvchilarni taʼlim jarayonining faol sub'yektlariga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.

1. M.Mirzaev, S.Usmonov, I.Rasulov Oʻzbek tili. T., «Ukituvchi» 1978.
2. SH. SHOabduraxmonov, M.Askarova, A.Xojiev, I.Rasulov, , X.Doniyorov Xozirgi oʻzbek adabiy tili. T., «Ukituvchi» 1980.
3. M.Irskulov Tilshunoslikka kirish. T., «Ukituvchi» 1992.
4. A.Baskakov, A. Sodikov, A.Abduazizov Umumiy tilshunoslik. T., «Ukituvchi» 1981.
5. X.Neʼmatov, O.Bozorov Til va nutq. T., «Ukituvchi» 1993.
6. U.Tursunov, J.Muxtorov, SH.Raxmatullaev Xozirgi oʻzbek adabiy tili.. 1-kism. T., «Ukituvchi» 1979.
7. N. Turniyozov A.Rahimov Oʻzbek tili (maʼruzalar matni)